XALQ DEPUTATLARI BOG‘OT TUMAN KENGASHI QARORI

2023 - yil 7 - yanvar VI-81-1-12-170-K/23 Bog‘ot tuman hokimligi

Bog‘ot tumanining 2023 yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, xalq deputatlari Xorazm viloyat Kengashining 2023 yil 5 yanvardagi “2023 yilgi Xorazm viloyatining mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-57-1-12-0-K/23–sonli qaroriga muvofiq hamda Xorazm viloyati hokimligi moliya bosh boshqarmasining 2022 yil 30 dekabrdagi 01-01-33-38//401-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Bog‘ot tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Xalq deputatlari Xorazm viloyat kengashining 2023 yil 5 yanvardagi VI-57-1-12-0-K/23–sonli “2023 yilgi Xorazm viloyatining mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Xorazm viloyat kengashining 2023 yil 5 yanvardagi VI-57-1-12-0-K/23–sonli “2023 yilgi Xorazm viloyatining mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, Bog‘ot tumani mahalliy budjetining 2023 yil uchun daromadlari 101 876,9 mln.so‘m, xarajatlari 214273,4 mln.so‘m prognoz qilinganligi hamda Respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 112 396,4 mln.so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2023 yil 1 yanvardan boshlab Bog‘ot tumanida “Mahalla budjeti” tizimi huquqiy eksperiment tariqasida joriy etilishi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalla budjeti” tizimini joriy etish orqali mahallalarning moliyaviy imkoniyatlarini yanada kengaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi 2022 yil 26 dekabr 458-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

4. 2023 yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

5. 2023 yil uchun tuman mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. 2023 yil uchun tuman mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. 2023 yil uchun tuman mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi 4-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2023 yil uchun viloyat budjetidan tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy budjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat'iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi qonunda belgilab qo‘yilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

9. 2023 yil uchun tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 2 018,5 mln.so‘m miqdorida belgilansin.

10. 2023 yil uchun tuman mahalliy budjeti shaxsiy g‘azna hisob varaqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

11. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo‘yicha 2023 yil uchun belgilangan minimal miqdorlar 7-ilovaga muvofiq belgilansin.

12. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2022 yilda xalq deputatlari Kengashlarining mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, xalq deputatlari Xorazm viloyat Kengashining 2023 yil 5 yanvardagi "2023 yilgi Xorazm viloyatining mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida"gi VI-57-1-12-0-K/23–sonli qaroriga muvofiq 2023 yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

davlat aktivlarini foydalanishga (ijaraga) berishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar.

Mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar tegishincha 2022 yil 1 iyul holatiga ko‘ra tuman aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq.

b) 3-ilovaga muvofiq quyidagi soliq turlari viloyat va tuman budjeti o‘rtasida taqsimlanadi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" 2022 yil 25 oktyabrdagi PQ-409-sonli qaroriga asosan 2023 moliya yilidan boshlab:

a) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida

moliyalashtiriladigan tadbirlar jamoatchilik fikri asosida “Ochiq

budjet” axborot portali orqali ovoz berish yo‘li bilan aniqlanadi.

Bunda, aholi tomonidan amalga oshirilishi taklif etilayotgan

tadbirlar har bir mahalla bo‘yicha bitta loyihalar paketi shaklida

ovozga qo‘yilishi;

b) tuman mahalliy budjetida shakllangan qo‘shimcha mablag‘larning 30 foizi jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuman fuqarolar tashabbusi jamg‘armalariga mavjud aholi soni va mahallalar sonidan kelib chiqib,teng ulushlarda yo‘naltirilishi;

v) tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari uchun tuman budjetlarining 5 foizi miqdorida, biroq kamida 6 milliard so‘m mablag‘ rejalashtirilishi belgilanganligi;

g) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini jamoatchilik

fikri asosida tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari orqali amalga

oshirilishining yangi tartibi ishlab chiqilishi ma’lumot uchun qabul

qilinsin.

14. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (S.Qurbonov), Moliya bo‘limi (J.SHonazarov), Davlat soliq inspeksiyasi (X.Jumaniyazov) mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjetning prognoz ko‘rsatkichlarini o‘z vaqtida va samarali bajarish;.

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

15. Davlat soliq inspeksiyasi (X.Jumaniyazov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirishga;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rishga;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazishga;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va

ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

Xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

16. Davlat soliq inspeksiyasi (X.Jumaniyazov), Kadastr agentligi tuman bo‘limi (E.Eshniyozov) 2022 yildan boshlab yuridik shaxslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

17. Davlat soliq inspeksiyasi (X.Jumaniyazov), tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

18. Majburiy ijro byurosi tuman bo‘limi (M.Iskandarov) Davlat soliq inspeksiyasi (X.Jumaniyazov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

19. Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (T.Mirzaev) jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

20.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (S.Qurbonov) tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra tumanda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va
video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini «e-ijro auksion» mayonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirish vazifasi yuklatilsin.

Tashqi reklama ob’ektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama ob’ektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni budjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

21. Irrigatsiya tizimi bo‘limi (U.Sa’dullaev) va tuman soliq inspeksiyasi (X.Jumaniyazov) tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

22. Tuman moliya bo‘limi (J.SHonazarov):

budjet intizomiga qat’iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlarini kuchaytirsin;

budjet intizomini buzish holatlari bo‘yicha har oy yakuni bilan Kengashga axborot kiritib borsin;

o‘tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo‘yicha kamomad va noqonuniy o‘zlashtirishga yo‘l qo‘ygan soha rahbarlarining hisobotini xar chorakda eshitish uchun Kengashga taqdim qilib borsin.

23. Kengashning mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berish uchun monitoring qilishga;

Mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

24. Tuman hokimligi:

Tuman mahalliy budjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, tuman xalq deputatlari, tuman hokimligining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, yoshlar ishlari agentligi, tuman hokimligi huzuridagi jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

25. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (S.Qurbonov), tegishli muassasa va tashkilotlar bilan birgalikda:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan
chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

26. Tuman hokimligi qonun bilan belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

27. Mazkur qaror “Bog‘ot sadosi” gazetasi hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

28. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

29. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Bog‘ot tuman Kengashining “Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi va tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **M.Quryozov**

Xalq deputatlari Bog‘ot tuman
Kengashining
2023 yil 7 yanvardagi
VI-81-1-12-170-K/23-son qaroriga
1-ilova

2023 YIL UCHUN BOG‘OT TUMANI BO‘YICHA

MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINING REJA KO‘RSATKICHLARI

№	Daromad turlari	ming. so‘m
1	Foyda solig‘i	
2	Aylanmadan olinadigan soliq	8 234 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	23 948 500
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	563 000
5	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	10 331 000
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2 738 000
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	5 030 000
8	Yuridik shaxslar yer solig‘i	10 040 000
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	10 532 000
10	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	100 000
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	2 346 000
12	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	313 000
JAMI		**74 175 500**
	Mobil aloqa xizmati, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i tushumlaridan tegishli ravishda o‘tkazib beriladigan daromadlar	**27 701 462**
	Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo	11 206 661
	Mobil aloqa xizmati	4 807 006
	Tamaki mahsulotlari	11 687 795
JAMI DAROMAD		**101 876 962**

Xalq deputatlari Bog‘ot tuman
Kengashining
2023 yil 7 yanvardagi
VI-81-1-12-170-K/23-son qaroriga
2-ilova

2023 yil uchun Bog‘ot tumani mahalliy budjetidan birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan kengash ajratmalarining cheklangan miqdorlari

№	Ko‘rsatkichlar	miqdori (ming so‘m)
Xarajatlar miqdori, Jami		**214 273 424,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**214 273 424,0**
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	**0,0**
	ish haqi, pensiya, stipendiya, nafaqalar miqdorlarini va ayrim xizmat turlari bo‘yicha tariflarni oshishi bilan bog‘liq xarajatlar (indeksatsiya xarajatlari)	
	Tuman va shaxar mahalliy budjetlariga transfertlar	
1.	**Xalq ta’limi bo‘limi**	**11 377 395,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	11 377 395,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
2.	**Maktabgacha ta’lim bo‘limi**	**12 142 516,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	12 142 516,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
3.	**Tibbiyot birlashmasi**	**73 200 415,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	73 200 415,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
4.	**Madaniyat bo‘limi**	**1 767 656,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 767 656,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
5.	**Jismoniy tarbiya va sport bo‘limi**	**4 671 426,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 671 426,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
6.	**Qishloq xo‘jaligi bo‘limi**	**779 433,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	779 433,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
7.	**Irrigatsiya bo‘limi**	**1 270 060,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 270 060,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
8	**Tuman fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi**	**323 057,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	323 057,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
9	**Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi**	**1 675 716,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 675 716,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
10.	**Moliya bo‘limi**	**1 509 765,0**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 509 765,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
11.	**Obodonlashtirish boshqarmasi**	**12 146 347,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	12 146 347,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
12.	**Hokimiyat**	**12 507 554,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	12 507 554,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
13	**Bandlik va mehnat munosabatlari bo‘limi**	**982 039,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	982 039,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
14	**Mahalla oilani qullab-quvvatlash bo‘limi**	**3 424 015,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 424 015,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
15	**Yoshlar ishlari agentligi**	**3 450 008,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 450 008,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
16	**Mahalliy budjet zaxira jamg‘armasi**	**2 018 474,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 018 474,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
17	**Kam ta’minlangan bolali oilalarga nafaqalar**	**60 371 022,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	60 371 022,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
18	**Fuqarorlar tashabbusi jamg‘armasi**	**10 407 591,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	10 407 591,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
18	**Kengash kotibiyati**	**248 935,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	248 935,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0

Xalq deputatlari Bog‘ot tuman Kengashining
2023 yil 7 yanvardagi
VI-81-1-12-170-K/23-son qaroriga
3-ilova

Umumdavlat soliqlaridan shahar va tumanlar mahalliy budjetlariga ajratmalar me’yori

Foiz hisobida

T/R	Shaxar va tumanlar nomi	Aylanmadan olinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	YUridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, *bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno*	Davlat aktivlarini foydalanishga (ijaraga) berishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar
1	Bog‘ot tumani	100	50	100	100	100	100	100	100	100	100	100

Xalq deputatlari Bog‘ot tuman
Kengashining
2023 yil 7 yanvardagi
VI-81-1-12-170-K/23-son qaroriga
4-ilova

Mahalliy budjetlarning 2023 yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Hudud nomi	**Daromad**	**Xarajat**
Bog‘ot tumani	101 876 962,0	214 273 424,0

Xalq deputatlari Bog‘ot tuman
Kengashining
2023 yil 7 yanvardagi
VI-81-1-12-170-K/23-son qaroriga
5-ilova

Bog‘ot tuman mahalliy budjetining 2023 yilgi yuqori budjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

T/r	**Shahar va tumanlar**	**Tartibga soluvchi transfert miqdori**
1	Bog‘ot tumani	112 396 462,0

Xalq deputatlari Bog‘ot tuman
Kengashining
2023 yil 7 yanvardagi
VI-81-1-12-170-K/23-son qaroriga
6-ilova

Bog‘ot tuman mahalliy budjetlarida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	**Hudud nomi**	**Miqdor**
1	Bog‘ot tumani	792 000,0

Xalq deputatlari Bog‘ot tuman
Kengashining
2023 yil 7 yanvardagi
VI-81-1-12-170-K/23-son qaroriga
7-ilova

Bog‘ot tumanida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblash maqsadida 2023 yil uchun belgilangan mulk qiymatining minimal
MIQDORLARI

T/R	**Shahar, tumanlar nomi**	**Soliq kodeksiga asosan mulk qiymatining mutlaq miqdori** ***(SK 412-modda)***	**Koeffitsient** ***(1,0 dan 0,5 gacha)***	**2023 yil uchun Yuridik shaxslar mol-mulkining minimal qiymatlari** ***(1 kv.metr uchun ming so‘mda)***
1	Bog‘ot tumani	1 000,0	0,80	800,0